


## BIZ O'ZBEKISTON FARZANDLARIMIZ

*Olimjonova Umida**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat  
O'zbek Tili va Adabiyoti Universiteti  
akademik litseyi o'quvchisi*

**Annotatsiya:** Vatan-biz tug‘ulib o‘sigan, kindik qonimiz to‘kilgan zamin. U muqaddas dargoh. Har kim uchun Vatan yagona va takrorlanmas mo‘jiza. Quyosh erta tongdan nafis nurini, iliq sehrini baxshida etayotgan mahal har bir inson qalbida ajib bir tuyg‘u tug‘yon uradi. Ayni shunday unutilmas xotiralarni ularashguvchi shul buyuk maskan jigargo‘sashi ekanligimizdan faxr etib, go‘yoki, osmonlarni zabit etgandek bo‘lamiz. Yangi O‘zbekistonni, albatta yoshlar bilan birga quramiz.

**Kalit so‘zlar:** Vatan, ona yurt, yoshlar, kelajak, iftixor, yurt kelajagi, xalq manfaati.

Yurtimiz baxtiyor yoshlar mamlakati bo‘lib, mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya’ni 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Albatta bu, davlatimiz zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklashini ko‘z oldimizga keltirsak, juda katta e’tibor, g‘amxo‘rlikni talab etadi. Biz yoshlar kuchli, bilimli, sog‘lom hamda yuksak ma‘naviyatli bo‘lib ulg‘ayishimiz, siyratimizda ona xalqimiz va Vatanimizga mehru-muhabbati sarbaland, yurt ravnaqini taminlashga hissa qo‘shishni sharaf deb biladigan komil inson sifatida voyaga yetishimiz zarur. Bugun ulg‘ayayotgan yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, puxta bilim olishimiz uchun olib borilayotgan amaliy sa‘y-harakatlarni ba‘zi davlatlarda yashayotgan bolalar hattoki tasavvur ham qilisholmaydi. Ayrim mamalakatlarda maktabda o‘qish katta orzu hisoblanadi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish bo‘sh vaqtini tashkil etish bo‘yicha qarorlar porloq kelajagimiz uchun kalit vazifasini bajaradi. Vatan faqat ona emas, balki ota hamdir .Har doim yelkangdan tutib turguvchi ,qoqilganda o‘ngalovchi, sen ishonguvchi, suyanguvchi suyanchig‘ing, himoyalovchi qalqoning otang kabitidir.

Yoshlar - har qanday jamiyatning ertasi. Ular tom ma’noda, O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebafo xazinasi hisoblanadi. Bugun o‘zbek diyori o‘zgacha ko‘rkka, havas qilarli husnga ega. Chiroyi kundan kunga oshib yashnab bormoqda. Mustaqillikka erishganimizdan beri qilinayotgan o‘zgarish va yangilanishlar maqtanishga arzigelik. Bugun qay sohaga yuzlanmang, qaysi sohaga boqmang o‘z yutuqlari bilan boshini baland tutib turubdi. Mamlakatimizda barcha sohalarda dadil islohotlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarini zamon talablariga

moslagan holda yangilash, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Tashabbus va takliflar qo'llab -quvvatlanib kelinyapti. Bunday keng ko'lamlı ishlar natijasi har jabhada sezilmoqda. Fan va madaniyat, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, meditsina, farmatseftika, televideniya. Bularning har biri bir olam, suhbat uchun bir mavzu, soatlab, kunlab so'z yuritsa bo'ladi. Aytib ado qilolmaysiz. Shuncha imkoniyatlar va yengilliklar yaratilayotgan yurtda yashagan har bir shaxs har nafasini Vatan deya olsa arziydi. Taraqqiy etayotgan yurtimiz yorqin keljak sari oldinga tomon odimlasa odimlayaptiki, aslo to'xtayotgan emas. Ey, aziz yurtdoshim, Vatan bizning taqdirimiz, bizning qismatimiz va shu bilan birga kelajagimiz hamdir. U bizni qo'lllaguvchi, u bizning hammadan ham ulug'imiz, hammadan azizimiz. Biz uchun borini bisyor qilib, bizdan bular evaziga faqat mehrmuhabbat kutguvchi mehrga zorimiz va mehrga boyimizdir. Vatanni qalban, chuqur his qilish uchun xalqning Vatanparvarlik namunalarini bilish, uni e'zozlash, qadriga yetish, mustahkamlash kerak. Mana shu tuyg'ular, mana shu go'zal insoniy oliy fazilatlar bugungi erkin kunimiz uchun haqiqiy Vatanparvarlik namunasidir.

Vatan tuyg'usi bu Vatanni anglash bir umr davom etadigan uzluksiz jarayondir. Biz har gal o'lkamiz bahori, yozi, kuzi va qishiga ro'baro' kelganda, uning tog'u-toshlari, daryo-yu o'rmonlari, obod shahar-u qishloqlarini ko'rganda, ko'nglimizda yangi -yangi tuyg'ular paydo bo'ladi. Inson o'z Vatani bilan ham bir umr muloqotda bo'lib yashaydi. Eng quvonchli va qayg'uli damlarda ota-onasini eslagani kabi Vatanni ham yodga oladi. Ona yurtining xursandchilik yoki tashvishli kunlari uchun o'zini burchli deb biladi. Biz buni Vatan oldidagi farzandlik burchi deymiz. Ana shu burch tuyg'usi otabobolarimizni yurtimiz ozodligi uchun da'vat etgan. Bu tuyg'u Vatanni anglashda alohida o'rin tutadi.

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy hayotida qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlar yillar o'tgani sayin tobora mustahkamlanib, ko'zga yanada yorqinroq tashlanmoqda. Zero, tarixan qisqa davr ichida barcha sohada mislsiz o'zgarishlar ro'y berdiki, bu haqli ravishda ko'pchilikning havas-u hayratiga sabab bo'layotir. Bunday yuksalishlar zamirida, shubhasiz, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan hayotga tatbiq qilinayotgan o'zbek modeli-rivojlanishning o'zimizga xos va mos yo'li samaralari mujassamdir. Chunki u ona kabi muqaddasdir! Yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq Uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlama doimiy yo'naltirib va qo'llab-quvvatlab turishni talab etadi. Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo'lida erkin ijtimoiylashuvi va o'zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-

tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi. Shu bois, mamlakatimizda eng katta e'tibor mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan hisoblanadi. Vatan qadrini vatangado va musofir biladi-deydi dono xalqimiz.

Bobokalonimiz, buyuk imperiya asoschisi Bobur ham ayni shu tuyg'u azobida to'lgunga qadar birga yo'ldosh bo'ldi. O'z asarida ham bir yurti qovuni isini olish uchun ming azob chekkani to'g'risida to'xtalib o'tiladi. Vatan hamisha o'z tuprog'idan yiroqdagilar uchun qo'l yetmas mirrix yulduzidek uzoq va nurli issiqlik bilan tortguvchi kuchga ega. Vatan ostonadan boshlanadi. Inson dunyoga kelishi bilan vatan oldidagi burchi hamda vazifasi u bilan birga buladi. Har bir inson umri davomida "vatan menga nima berdi"-deb emas balki, "men vatanimga nima berdim"-deb yashashi kerak. Yoshlikda olingen bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir-degan naqlga amal qilgan holda, har kim o'ziga berilgan ana shu qisqa davrda kasb-hunar egallahga, ulkan marralarni zabit etishga harakat qiladi. Biz yoshlar kuchli, bilimli, sog'lom hamda yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishimiz, siyratimizda ona xalqimiz va Vatanimizga mehr-u muhabbatni sarbaland, yurt ravnaqini ta'minlashga hissa qo'shishni sharaf deb biladigan komil inson sifatida voyaga yetishimiz zarur. Vatan ozodligi ajdodlarimizning buyuk armoni va muqaddas e'tiqodi bo'lib, ular bu yo'lda jonlarini fido qilishdan ham qaytmaganlar. Shiroq matonati, To'maris jasorati, Najmuddin Kubro, Jalolliddin Manguberdi, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz, shuningdek, o'tgan asr boshlarida yashab o'tgan ma'rifatparvar bobolarimizning ozodlik yo'lidagi kurashlari vatanparvarlikning yuksak namunasidir. Ularning qahramonlik va fidoyiliklari, hayot yo'llari biz yoshlarga hamisha ibrat bo'lib qoladi. Biz yoshlar bizga yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, ularga munosib javob qaytara olishimiz zarur. Biz yashayotgan yurt ulug' siymolar barpo etgan buyuk zamin hisoblanadi. Buyuk zaminni ko'z qorachig'imizdek asrab uning har bir go'shasiga ehtiyojkorona munosabatda bolishimiz kerak. Chuqur bilim egallab yurtimiz rivojiga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Biz dunyo tan olgan siymolar Alisher Navoiy, alXorazmiy, al-Buxoriy, al-Farg'oniy, ibn Sino kabi buyuk insonlarning avlodlarimiz. Ularga munosib farzand bo'laylik. Doimo Vatanimizga muhabbat bilan yashashimiz kerak. O'zga yurtlardagi vayronagarchiliklarni eshitib, beixtiyor bizning yurtimizga ko'z tegmasin deb duoga shoshilamiz. Bugungi tinch, farovon hayotimizni ajdodlarimiz orzu qilib yashashganini yodimizdan chiqarmasligimiz lozim. Xalqimizda ajoyib bir gap bor "Dushmaningdan qo'rqma nari borsa o'ldiradi, dostonidan qo'rqma nari borsa sotadi, lekin befarq va loqayd insondan qo'rq chunki uning qo'lidan bu ikkalasi ham keladi. Bu maqolning zaminida juda kata ma'no bor. Ba'zi holatlarda shunday odamlarni ko'ramiz atrofdagi bo'layotgan voqealarga ko'pincha loqaydlik bilan qaraydi. Lekin bu yurtimiz rivojiga juda katta

ziyon keltiradi. Hamma bir tan-u bir jon bo‘lib bitta maqsad yo‘lida harakat qilsa ularni hech kim yenga olmaydi. Biz yoshlar harakatimiz, tashabbuslarimiz, bilimimiz, iqtidorimiz bilan yurtimizning rivojiga o‘z hissamizni qo‘sishimiz kerak. Vatanimiz rivojiga hissa qo‘sish barchamizning vazifamiz . Bu ulkan vazifani bajarishga barchamiz sidqidildan harakat qilishimiz kerak. Bu yurt bizga ajdodlarimizdan qolgan buyuk merosdir. Bu merosni asrab avaylash, uni jahonga buyuk davlat sifatida tanitish bizga sharaf bag‘ishlaydi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki: bu muqaddas Vatan ajdodlardan avlodlarga qolgan merosdir. Bu zamin kecha yo bugun bunyod etilmagan. Shunday ekan biz bu muqaddas go‘sha rivojiga har birimiz o‘z hissamizni qo‘shtmog‘imiz lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari/vatan>.
2. <https://kun.uz/55701881?q=%2Fuz%2F55701881>
3. <https://uzbaza.uz/vatan-haqida-maqollar/>